



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH.

Abduqodirova Dilzoda Mirzaaliyevna

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

Karimova Dildora Amvarovna

2- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8398281>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-September 2023 yil

Ma'qullandi: 28-September 2023 yil

Nashr qilindi: 30-September 2023 yil

KEY WORDS

Ilm – fan doirasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar yoshlarimizning ma'naviy ongi rivojlanishi, yuksak fikrli, o'tkir salohiyatli va keng dunyoqarashli bo'lib kamol topishida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

ABSTRACT

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonini takomillashuvi o'quv ishlarning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari, o'qitish metodlari, Finlandiyadagi ta'lim tajribalari, pedagogik texnologiyalarni interfaol uslublari asosida darslarni tashkil qilish yo'llari taqdim etilgan.

Bugun bizni o'rab turgan tevarak atrofimizdagi sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ya'ni madaniy va ma'rifiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda kundalik turmush tarzimizni yanada yaxshilash uchun olib borilayotgan islohotlarga bor diqqat – e'tiborimizni qaratishimiz kerakligi zamonimizning asosiy tamoyillaridan biriga aylanib ulgurgan. Ilm – fan doirasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar yoshlarimizning ma'naviy ongi rivojlanishi, yuksak fikrli, o'tkir salohiyatli va keng dunyoqarashli bo'lib kamol topishida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Har bir mamlakatning har tomonlama ravnaq topishi, uning tinchligi barqarorligi ta'minlashining eng muhim jihatlaridan biri ushbu jamiyatda yashab turgan shaxslarning bilim-saviyasiga bevosita bog'liq. Jahonda rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlarning barchasi o'z xalqining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va har bir shaxs hayotda o'z o'rnini topishi, firklarni erkin va tushunarli bayon qila olishlari uchun ta'lim jarayonini takomillashtirish va uni amaliy hayotga tadbiq qilinishini davlat ta'lim tizimining asosiy konsepsiyasiga aylantirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, mamlakatimizda bu sohada qator izlanishlar olib borilayotganini 2023 – yilni muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nomlanishi buning yaqqol isbotidir. Zero, ushbu nom doirasida jonajon yurtimizda o'sib ulg'ayayotgan yurtdoshlarimizning barchalari avvalo inson sifatida qadrlanayotganliklari, ilm – hunar o'rganishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani barchani quvontiradigan yutuqlarimizdan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Qadimdan jamiyat yuksalishining poydevori ta'lim hisoblanib keladi. Yuksak salohiyatli va ma'nan boy xalqni yengib bo'lmaydi va bu bevosita ta'lim berish jarayoniga bog'liqdir. Ta'lim tushunchasiga turli xil qarashlar va minglab tushunchalar mavjud. Masalan, ba'zi qarashlar ta'limni faqat o'quv dargohlarida olib boriladigan jarayon desa yana boshqalari bu jarayonni hayotga bog'lagan holda talqin etishadi. Aslida olganda har ikkala tushunchalarda qaysidir ma'noda haqiqat bor. Chunki biz ta'lim olishimizning ko'pgina qismini aynan bilim olish maskanlarida olamiz ammo biz ta'limni faqat o'quv dargohlari (bog'cha, maktab, litsey, oliy o'quv yurtlari va h.k) da berilishi zarur bo'lgan tushuncha deb qarashimiz bu jarayonga tor ma'noda yondashilayotganligining bir belgisidir. Ta'lim bevosita bizni butun bir hayotimiz davomida egallashimiz shart bo'lgan bilim va tajribalar jarayoni hisoblanib, u uzluksiz tarzda davom etib keladi. Demak biz ta'limni nafaqat o'qishda balki oilada, ishda va boshqa turli javhalardan olamiz. Xulosa qilsak ta'lim bu har bir shaxsni butun umri davomida turli muhitda bilim olish va uni amaliy hayotga tadbqiq etib tajriba ortirishdagi davomli olib boriluvchi harakatlar majmuidir. Xususan ta'lim beruvchi va oluvchi o'rtasidagi munosabatlarga ya'ni berilayotgan bilim, ko'nikmalar uni qabul qiliuvchilarga aniq, tushunarli va sodda tarzda yetkazilishi zarur. Bu faoliyatning asosiy negizi – pedagoglardir. Pedagoglar o'qitish protsessining ustunlari hisoblanishadi. O'qituvchi qanchalik o'z kasbining mutaxassisi bo'lsa, erkin fikrlash, sof nutq, ijodkor va o'zi tomonidan berilayotgan manbani o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishini maksimal darajada uddalay olsa tashkillanayotgan ta'lim jarayonidan shunchalik yuqori natijaga erisha oladi. Shu bilan birga bugungi kun pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri bu ta'limni tashkil etishda eng mayda detallargacha nazardan chetda qoldirmasliklari kerakligidir. Misol uchun o'qituvchi darsni boshlashdan oldin o'quv xonasining ozodaligini, tartibligini, xattoki sinf xonasi havosining tozaligini ham ko'zdan kechirmog'i darkor. Bu elementlar aslida juda ko'zga ko'rinmasada dars jarayonini olib borishda asosiy omil ekanligidan habaringiz bormi?

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash uchun jahonda o'zining ta'lim dasturi bilan yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan Finlandiya o'qitish tizimi asosida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar barchamizga ma'lum. Finlandiya pedagoglari sinf xonasi havosining tozaligiga shu qadar ahamiyat berisharkanki, bu bolalarning darsni yaxshi o'zlashtirishlari uchun xizmat qiladigan birinchi navbatdagi vositalardan biri deb bilisharkan. Bu haqida joriy yilda Finlandiya maktabiga borib dars berayotgan amerikalik o'qituvchi Timoti Uokerning o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda yozilgan "Finlandiya ta'lim mo'jizasi" kitobida batafsil ma'lumot bergan. Zero, ilm-fan toza havoning inson salomatligi va asab tizimiga qay darajada ijobiy ta'sir etishini isbotlab bo'lgan. Inson toza havodan nafas olganda inson miyyasining faoliyati va qabul qilish darajasi oshadi. Shu bilan birga Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti tomonida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ekspertlar xulosasiga ko'ra Finlandiya havoning tozalik darajasi yuqori ko'rsatilgan davlatlardan biri ekanligi ko'rsatilgan. Shuni ham yodda tutishimiz zarurki bizning yuksak ma'naviyatli, ilm – sohasida yuqori cho'qqilarga erishgan Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning hayot va ijod faoliyatlarini o'rganganimizda ularning tabiat qo'ynida ko'p kitob mutolasi va ilmiy qarashlari ustida ish olib borayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek ta'lim jarayoning tashkilashda eng oddiy va boshlang'ich detallarni e'tiborsiz qoldirmasligimiz kerakligini birgina sinf xonasining havosi doirasida ko'rganimizni

keltirishimiz mumkin. Shubhasiz jismonan sog'lom bo'lish ma'nan yetuk bo'lish uchun tayanch vositadir. Natijada biz ta'lim berish jarayonini rivojlantirishimiz, shiddat bilan o'zgarayotgan axborotlar, yangiliklarni o'zlashtirishimiz yanada yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin.

Axborotlar asrida yashar ekanmiz bugungi kun, zamon talabiga mos keladigan ta'lim sifatini yaxshilash doirasida ko'plab o'zgarishlarga, yangiliklarga duch kelamiz. Hozirgi kunda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ta'lim tizimi va tashkil etish jarayoni to'liq raqamlashtirishga o'tmoqda. O'quv muassasalari zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlanmoqda. Shu bilan birga ta'limning rivojlanishi oqibatida yangi ijtimoiy sohalarni vujudga kelishi va hozirgi kun tili bilan aytganda zamonaviy kasblarni paydo bo'lishi pirovardida yoshlarimizni o'zlarini band qilayotganliklari, ishbilarmon va yuqori daromadga erishayotganliklari hech kimga sir emas. Buning oqibatida ta'lim sifatini yaxshilash uchun o'qituvchilar o'z ustilarda tinmay ishlashliklari, chuqur bilim va malakaga ega bo'lishlari nafaqat bir sohada balki turli sohalardan ham bilimga ega bo'lishliklari talab etilmoqda. Chunki o'quvchi va talabalar tominidan berilayotgan savollarga o'qituvchilar aniq va keng ko'lamli tarzda javob berish uchun yetarli bilim manbaiga ega bo'lishlari shart. O'quvchi – yoshlar qiziquvchan va intiluvchan bo'lib o'sib kelayotganliklari sari bugungi kun pedagoglari ham o'zlari ustida tinmasdan ishlamoqdalar. Dars - maktabdagi o'quv ishning tashkiliy qismi bo'lib vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy guruhli – sinf bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi. Jamoa bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, fanni turli fanlarga bog'langan holda o'quv dasturga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalaniladi.¹ Darslar qiziqarli va motivatsion tarzda tushunarli bo'lishi uchun o'quvchi yoshlarni diqqatni, ijobiy kayfiyati va shiddatini dars davomida saqlab qolishda turli interaktiv metodlardan samarali foydalanayotgan mohir pedagoglarimiz o'z kasblarining haqiqiy fidoiylaridir. Bizga ma'lumki sifat bu ko'rsatkich ya'ni biror buyum qay darajada foydali va chidamliligi yoki biror jarayonning qay darajada kechishi. Sifatni biz 3 qismga past, o'rta va yuqoriga bo'lamiz. Eng yuqori darajasi eng asli hisoblanib har doim talab ko'p bo'lgan o'rin hisoblanadi va bu sifatli deb nomlanadi. Oddiy qilib tushuntirganda biz har doim yuqoriga, sifatliga tomon intilamiz va eng sifatli narsani o'zimizga atrofdagilarmizga baham ko'rishni istaymiz. Xuddi shunday ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ham biz eng ilg'or yuqori keltirganimizdek asl prinsiplarga tayanamiz. Shulardan biri o'qituvchilarni pedagogik salohiyati va mahoratini oshirish uchun qilinadigan ishlar. Bu borada mamlakatimiz qator ishlar olib borilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan joriy yil doirasida ta'lim sifatini oshirish, sohani ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepyisasining ishlab chiqilishi, Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalarining kengayishi, magistratura bosqichida o'qishni xohlovchi xotin – qizlar uchun “ Oila va xotin – qizlarni tizimli qo'llab – quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi 2022 – yilning 7 – mart sanasida qabul qilingan 87 – sonli Prezident Farmoniga asosan davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin – qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi va bunga kamida har yili 200 milliard so'm ajratiladi. 2022 – 2026-yillar uchun ishlab chiqilgan “Taraqqiyot strategiyasi” da ham ta'lim tizimini isloh qilish uchun qator maqsadli vazifalar belgilangan. Bosh qomusimizni yanada takomillashtirish, qonun

¹ Karimova D.A.FARDU Ilmiy xabarlar № 6 2019

ustuvorligini oshirishi, aholining erkinliklari va huquqlarini ta'minlash yuzasidan Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o'zgarishlar qatorida yoshlarning bilim olishlari va ta'lim tizimini qonuniy jihatdan mustahkamlanayotgani chin ma'noda tarixiy hodisadir. Shunday ekan, shu va shu kabi qator imkoniyatlardan unumli foydalanish har bir O'zbekistonlikning asosiy burchidir. Yoshlarga tug'ri ta'lim berish uchun qilinayotgan ishlarning barchasi o'z natijasini berishi shubhasiz. Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganlaridek "Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo halokat – yo saodat" dir.

Xulosa qilib aytsak Har qanday jamiyatning istiqboli uning ta'lim – tarbiya maqomiga, yangicha ta'lim tizimi tarkibi va mohiyatiga, teran ma'rifiy madaniyatiga bog'liq. Zotan, ta'limma'rifati darajasigina jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta'minlaydigan, dunyo uzra nufuzini belgilaydigan yagona omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyatlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi." "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyot xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" Mavzusidagi xalqaro konferensiyadan. Toshkent 2018-yil.
2. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida " Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF – 60 sonli Farmon .
3. Timoti Uoker "Finlandiya ta'lim mo'jizasi" Global books, T.: 2023yil
4. Karimova D.A. "Musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash".LESSON PRESS T.: 2022 yil

INNOVATIVE
ACADEMY